

О‘ZBEKISTON HUDUDI DIALEKTIZMINI O‘RGANISH JARAYONLARI

Odamboyeva Nafosat Ahad qizi

Nukus davlat pedagogika instituti Ellikqal'a pedagogika fakulteti talabasi

Jalgasova Hilola Maxmud qizi

Nukus davlat pedagogika instituti Ellikqal'a pedagogika fakulteti talabasi

Xasanbayeva Farangiz Atabek qizi

Nukus davlat pedagogika instituti Ellikqal'a pedagogika fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbi maqolada shevaning ahamiyati, O‘zbekiston hududi dialektizmi, shevalarga xos xususiyatlar va mamlakatimiz hududida shevalarni o‘rganish sohasida amalga oshirilgan ishlar haqida so‘z boradi.

Tayanch iboralar: dialekt, lahcha, adabiy til, og‘zaki shakl, shevalar fonetikasi

Har bir xalqning o‘ziga xos asriy an‘analarini davom ettirib, nutqiy madaniyatini shakllantirib kelgan, madaniy merosining asosiy belgisi bo‘lgan shevalari bor. Bilamizki, shevalar muayyan hudud aholisi uchun so‘zlashuv vositasidir. Bundan tashqari shevalar asosan, adabiy tilning boyishi uchun eng katta manbaadir. Til asosan ichki manbaalar asosida boyib boradi. Vazifasidan kelib chiqqan holda adabiy til shevalar asosida ishlab chiqiladi. Adabiyotlarda ilmiy jihatdan xalq shevalariga “Faqat muayyan bir hududga xos ayrim belgilarni o‘zida namoyon qilgan til shakli mahalliy shevalar hisoblanadi. Shevaning faqat og‘zaki shakli mavjud”, deya ta‘rif beriladi. Shevalarda yangicha so‘zlarning kirib kelishi bo‘lmasada, ular adabiy til mazmunining boyishiga xizmat qiladi. Har bir hudud doirasidagi sheva bir-biridan tubdan farq qiladi. Shuning uchun ham o‘zbek tilida so‘zlashuvchi kishilarning nutqida hududiy tafovutlar ko‘zga tashlanadi.¹ Sheva atamasi forscha so‘z bo‘lib, ovoz, til, so‘zlashish, holat, yo‘sin, ravish kabi ma‘nolarni anglatadi. Shevalar o‘zbek tilining o‘ziga xos fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarga ega bo‘lgan kichik bir qismi bo‘lib, o‘zlarining jug‘rofiy o‘rinlari bilan bir-birlaridan ajralib turadi.²

O‘zbek tili ham turkiy tillar oilasiga mansub til bo‘lib shevalarga, lahjalarga boy til sanaladi. Turkiy tillar dialektologiyasi turkolpgiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Turkiy tillar dialektologiyasi masalalariga bag‘ishlangan ilmiy konferensiyalarning muntazam ravishda o‘kazilishi, “Turkiy tillar dialektologiyasi masalalari” to‘plamining nashr etilishi dialektologiyaning turkiy tillar fonetik, leksik, grammatik sohalariga doir masalalarni hal qilishdagi ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi. Turkiy tillarning sheva va lahjalari monografik tarzda o‘rganilganligi sababli turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi uchun muhim qiymatga ega bo‘lgan fonetik, grammatik va leksik xususiyatlar aniqlandi. Turkiy tilli respublikalarning dialektologlari tomonidan dialektologik atlaslarning tuzilishi soha taraqqiyotidagi

muhim qadamlardan hisoblanadi. Turkiy tillarning sheva va lahjalari bo'yicha to'plangan faktik materiallar asosida bir qator lug'atlar ham tuzilgan.³

O'zbekiston hududidagi dialektlarni ko'plab olimlar o'rgangan. Bu sohada ko'pgina nomzodlik va doktorlik ishlari yoqlangan. F.Abdullayevning "Xorazm shevalari", M.Mirzayevning "O'zbek tilining Buxoro gruppasi shevalari", I.Shamsiddinovning "O'zbek tilining Qorako'l shevasi", Sh.Nosirovning "O'zbek tilining Qo'qon shevasi", Q.Muhammadjonovning "Janubiy Qozog'istondagi o'zbek shevalari morfologiyasi", B.Jo'rayevning "Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari", T.Yo'ldoshevning "Tojikistondagi o'zbek shevalari morfologiyasi", A.Ishayevning "Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalari", S.Ibrohimovning "Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi", "O'zbek tilining Andijon shevasi", A.Shermatovning "Quyidagi Qashqadaryo o'zbek shevalari", V.Egamovning "Samarqand oblastining G'allaorol shevasi", N.Rajabovning "O'zbek tilining G'arbiy Samarqand shevalari", S.Rahimovning "O'zbek tili Surxondaryo shevalari" kabi kitoblar shevachilikni o'rganish sohasida qilingan ishlarning namunlaridir. Bu asarlarning barchasida shevaga xos so'zlar, shevalar fonetikasi, ularning tasnifi haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Shu kitoblardan biriga to'xtalsak: S.Rahimov o'zining „O'zbek tili Surxondaryo shevalari“ kitobida Surxondaryo o'zbek shevalarini quyidagicha klassifikatsiya qiladi:

1. "j"lovchi o'zbek shevalari (qipchoq lahjasiga xos shevalar);
2. "y"lovchi o'zbek shevalari (qorluq lahjasiga xos shevalar);
3. Ikki tilda so'zlovchi shevalar.⁴

Har bir sheva o'zining fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari bilan boshqa bir shevadan ajralib turadi. Namangan shevasiga to'xtalsak. Namangan shevasi fonetikasi, egalik kategoriyasi, mayl kategoriyasi, kelishik va ko'plik, yordamchi birliklari bilan o'ziga yaqin hududda joylashgan boshqa shevalardan tubdan farq qiladi. Masalan, -lar (ko'plik shakli) qo'shimchasi -le, -ler shaklida uchraydi: xo'rozlar (adabiy)- xurazle (sheva), qalamlar(adabiy)- qalamle (sheva) kabi. Kelishiklar ham shunday farqlanadi: -da (o'rin-payt) kelishigi adabiy tilda uyda shaklida; Namangan shahar shevasida uyde shaklida uchraydi.

Namangan shahar shevasida egalik kategoriyasi o'ziga xos shakl va talaffuzga ega. Egalik kategoriyasi.

Birlik:

I qalam, ruchkam

II qalaming, ruchka:

III qalami, ruchkasi

Ko'plik:

I qalamlerimiz, ruchkelerimiz

II qalamine, ruchkane

III qalamleri, ruchkeleri

Bundan tashqari, fe'lining to'liqsiz shakllari edi, ekan, emish shakllari ham o'ziga xos usulda qo'llaniladi. Masalan, kelgan ekan (adabiy) shakli kegan eka: shaklida uchraydi. Bunda qo'llangan "a" fonemasi "a" fonemasining invarianti bo'lgan til orqa "a" unlisidir.⁵

Shevalarni o'rganish sohasidagi izlanishlarning eng katta na'munasi deb o'tgan 1971- yilda ikki ming nusxada bosilib chiqqan „ O‘zbek xalq shevalari“ to‘plamini ham aytish mumkin.

Shevashunoslikka oid tilshunoslar manbaalarini o'qib o'rganar ekanmiz, har bir sheva o'ziga hos xususiyatlarga egaligini anglaymiz. Shevalarni o'rganish juda ko'plab tarixiy - lingvistik xulosalarni chiqarishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedova F. „Mag‘zi to‘q til-ozig‘i ko‘p til “ maqolasidan. 18. 08. 2022
2. Rajabov N. „O'zbek shevashunosligi“. Darslik. Toshkent: O'qituvchi, 1996
3. Dadaboyev X.A, Xolmonova Z.T „Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi “ Toshkent-2015.
4. Rahimov S. „ O'zbek tili Surxondaryo shevalari“. Monografiya. - Tosh: Fan.
5. Darveshov I, Nu'monova D „ Namangan shahar shevasining morfologik xususiyatlari“ maqolasidan „, Oriental art and Culture“ jurnal. 2020